

10-10-2019

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN THE PROCESS OF SELF-RELIANCE DEVELOPMENT

Mohidil Erkinova Isakhanova

Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Kokand State Pedagogical Institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Isakhanova, Mohidil Erkinova (2019) "PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN THE PROCESS OF SELF-RELIANCE DEVELOPMENT," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 9 , Article 45.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss9/45>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN THE PROCESS OF SELF-RELIANCE DEVELOPMENT

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

O`QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Zulfizar
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashda bo`lgan talablarini ortirish, o`quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy interfaol usullarning o`rni va roli yoritilgan.

Tayanch so`zlar: ijodiy fikrlash, insonparvar mulohot, faol o`zaro harakat, interfaol metod, ta'lim-tarbiyaviy maqsad, mustaqil fikr, fan, texnika, texnologiya.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Ортикова Зулфизар
Ферганский государственный университет

Аннотация: данная статья направлена на повышение потребности в интерактивных методах обучения, педагогических и информационных технологиях в учебном процессе, рассматривается место интерактивных методов в развитии творческого мышления у учащейся молодежи.

Ключевые слова: творческое мышление, общение, интерактивные методы, самостоятельное мышление, учебно-воспитательная цель, наука, техника, технология.

TO DEVELOP STUDENTS` CREATIVE THINKING

Ortikova Zulfizar
Fergana state universiti

Abstract: This article is aimed at increasing the need for interactive teaching methods, pedagogical and information technologies in the pedagogical process, the place of interactive methods in the development of creative thinking among students.

Reference expression: creative thinking, communication, interactive methods, independent thinking, teaching and educational purpose, the science, technique, technology.

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasi barchaning birdek diqqat e'tiborida turgan dolzarb masalalardan biridir. O`qituvchi tomonidan o`quv jarayonida yoshlar (talaba o`quvchilar)ga shaxs sifatida qaralishi, tyurli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo`llanilishi, yoshlar (talaba o`quvchilar)ni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas`uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o`qishga, fanga va o`zi tanlagan kasbiga bo`lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogik faoliyatga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta'lim muassasalarga qo`yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog`liq dolzarb masalalarini ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta'lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat

ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ortib boradi. Qo'yilayotgan vazifalarning deyarli barchasi, tamoyil jihatidan, yangi talablarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilishda jamoatning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko'rishi yetarli bo'lmay qoladi. *"Bugungi oldimizda turgan o'ta muhim, ulkan vazifalardan yana biri-bizning o'rnimizga kelayotgan, o'z fikri, o'z dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir."*

Ta'lim sohasidagi zamonaviy intilishlar-ta'lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo'naltirishdir, ya'ni []:

- o'qishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish, bu, katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish;

- turli vaziyatlarda eng muqobil harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ya'ni inqiroz sharoitlarida yosh mutahassisni samarali harakat qilish ko'nikmasi;

- ta'lim faoliyati subyektlarini avtoritardan insonparvar-muloqotli faol o'zaro harakatga o'tishi;

- faol ta'lim metodlarini keng targ'ib etish hamda tajribalar almashish, seminar-treninglar, dasyurlashtirilgan kompyuterli ta'lim, o'quv guruhli munozaralar, ishbilarmon o'yinlar, case-study.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy masalalardan biri-o'quvchilarda ijodiy fikrlashni tarbiyalash- ularni komil inson bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlovchi mezonlardan biridir. Bundan tashqari, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqatli, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, axloqli, vijdonli va irodali inson bo'lib yetishishlaridagi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zero, bugun ijodiy fikrlay olmaydigan mutaxassis fan, texnika texnologiyalar jadal o'zgarib borayotgan sharoitga ko'nika olmaydi va muvoffaqqiyatli faoliyatni tashkil etishga qiynaladi. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarni ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish oliy ta'limning dolzarb vazifasi va istibolli muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan asoslangan, ishlab chiqilgan, dunyo tan olgan va amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modeli-shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning uzviy birligida ijodkor va raqobatdosh mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi[1].

Mashhur olim-pedagog A.Disterveg shunday yozgan edi: *"Xar bir talaba mustaqil o'qimog'i, izlanmog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog'i lozim"*. Haqiqatdan ham talaba mustaqil ravishda bilimini oshirib boraversa, unda o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilish ortadi, hamda yoki bu darajadagi ijodkorligi ortadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tabor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda asosiy e'tibor o'quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi [3].

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi va talaba asosiy shaxsga aylanadi. Shuning uchun o'quvchi yoshlarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o'qitish usuli hisoblangan innovatsion texnologiyalarning va ularning tarkibiy qismi bo'lgan interfaol metodlarning ahamiyati benihoya kattadir. Bir necha yillik tajribalardan kuzatilishicha, interfaol usullar o'quvchi yoshlarning bilimli, erkin fikrlaydigan shaxs bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashning asosiy garovi bo'lib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol usullardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar—bu jamoa bo'lib, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning o'ziga xosligi, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi [5].

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- *O'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;*
- *O'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlar doimiyligini ta'minlash;*
- *Ularning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;*
- *pedagog va o'quvchi, talabalarning doimo hamkorlikda faoliyati tashkillashtirilishi;*
- *o'quvchi yoshlarning his tuyg'ularini hurmat qilish va rivojlantirish;*

O'qituvchi belgilangan maqsad bo'yicha natijaga erishishi uchun qanday texnologiyani tanlashi uning ixtiyorida bo'lib, bunda o'quvchilarning bilim doirasi, guruh harakteri va mavjud sharoitga qarab amalga oshiriladi.

O'qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalaridan foydalanish yo'li bilan talabalarni ijodiy mustaqil faoliyatlarini tashkillashtira oladigan, ularga kasbiy yo'nalishlarini tanlashga yordam beradigan, o'qituvchilarni tayyorlashga kam e'tibor qaratiladi. Bu talabalarni ijodiy mustaqil faoliyatlarini tashkillashtirish bo'yicha zamonaviy oliy ta'lim maktabning barcha muammolari emas. Faol— faoliyatning eng kam bo'lmagan muhim jihatlardan biri bo'lib mustaqil ish-ijodkorligini, bilish faolligini, yosh mutaxassislar to'qnashishlari mumkin bo'lgan, hayotiy va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun muhim bo'lgan fikrlashning tizimligini rivojlantirish hisoblanadi

Masalan, ta'lim-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun, kompyuter bilan ishlash tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Bunday ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur bo'lib, bu jarayonda o'qitilayotgan predmetning o'ziga xos tomonlari bo'lgan joy va sharoitini, mavjud axborot texnologiyalarini, asosiysi, o'quvchining imkoniyat va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olish kerak. Faqat shundagina ta'lim jarayomida kafolatlangan natijaga erishish va o'quvchilarni ta'lim jarayonining markaziga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o`quvchilarning bilish faoliyatini mavzu bo`yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o`qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. O`qitish metodlari o`z mohiyati va mazmuniga ko`ra ma`lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo`ladi. Ularning samaradorligi to`g`risida fikr yuritilganda o`qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo`naltira oladigan, o`qituvchi va o`quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta`minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb-hunar kolleji, oliy o`quv yurtlari) oldiga qo`yilayotgan maqsadga nechog`lik erishilayotganini ko`zda tutish kerak. Yoxud o`qitish metodlari bevosita ma`lum amaliyoti bilan aloqador konstepsiyadir [3].

O`qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyixasi tarzida mavjud bo`ladi.

Bu loyixa amaliyotga o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining o`zaro tutashuvi tekisligida, o`qitish va o`qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuoasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo`lish shakllari yo`q, sababi umumiy holda o`qitish metodi o`zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Muammoga oid ko`pchilik adabiyotlar o`qitish metodlarini faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod u yoki bu maqsadni yechishda o`z o`rnida ishlatilsa, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o`quvchi (talaba) faolligini yuqori darajasini ta`minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

O`qitish metodlari –o`rganilayotgan obyektning mohiyati va qonuniyatlaridan kelib chiqib, borliqni amaliy va nazariy o`zlashtirish usullaridir. Ta`lim jarayonida qo`llaniladigan interfaol metodlar yoshlarning ijodiy fikrlarini shakllantirishga qaratilgan bo`lishi kerak bo`ladi. Ta`limning faol metodlari talabalar bilish jarayonini faollashtirishga tordam beradi.

Interfaol ta`lim bir vaqtda bir nechta masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi–o`quvchilarning muloqot olib borish bo`yicha ko`nikma va malakalarni rivojlantiradi, o`quvchilar orasida emotsional aloqalarni o`rnatishga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o`z o`rtoqlarining fikrini tinglashga o`rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta`minlaydi [2].

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash mumkin-ki, ta`lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish o`quvchi-yoshlarda ijodiy fikrlashni shakllantirish ta`lim va tarbiyaning birligiga erishish, talabalarda ta`lim jarayoniga nisbatan qiziqish va mas`uliyatlikni rivojlantirish, bilish faolligini oshirib mustaqil ta`lim olishga ehtiyojni shakllantirish hamda ahloqiy tarbiya samaradorligini yanada yuksaltirish imkoniyatini beradi.

References:

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli 1997y.
2. G`ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta`lim samaradorligini oshirish usullari//Innovatsiya o`quv jarayonida (tezislar to`plami). -T.: 2009.- 106 b.
3. Xolmatova Z.T. Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogike. Nauchniy jurnal «Gumanitarniy traktat» www.gumtraktat.ru ISSN 2500-115915 iyulya 2019 g.
4. SHaripova D., Xolikova D., Osnovnie napravleniya raboti po texnologii zdorovesberejeniya v nachalnoy shkole. "Xalq ta`limi" ilmiy-metodik jurnali. 2017. № 6. www.xtjurnali.zn.uz
5. Yuldashev U.Y., Saidova M. Ta`limda axborot texnologiyalari muhiti va o`quv muassasalarining yordamchi o`quv bo`g`inlari // Pedagogik mahorat.- Buxoro. 2003. Ns 4. -82 b.